O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI
OLOT TUMANI HOKIMINING
QARORI

Buxoro viloyati, Olot tumani, Olot ko’chasi, 73-uy. Tel: (365) 34-22-114, faks: (365) 34-22-539

2023 - yil 9 - yanvar 9-2-31-Q/23 Olot tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tumandagi avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarning hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va uni sifatini yaxshilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 22-iyuldagi 259-45-sonli “Harbiy-transport majburiyati to‘g‘risida”gi farmoyishiga muvofiq, tumandagi avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarning hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va unisifatini yaxshilash maqsadida hamda Olot tuman mudofaa ishlari bo‘limining 2022-yil 13 dekabrdagi 1342-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limining 2022-yil 13 dekabrdagi 1342-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman mudofaa ishlari bo‘limining tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalardagi avtortansport vositalari va boshqa texnikalarning hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va uni sifatini yaxshilash maqsadida 2023-yil davomida tekshirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mudofaa ishlari bo‘limining tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalardagi avtortansport vositalari va boshqa texnikalarning hisobini yuritilishini o‘rganish ishlari belgilangan tartibda amalga oshirilsin.

4. Tuman mudofaa ishlari bo‘limining tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalari rahbarlariga:

-texnikalarni harbiy hisobini yuritilishi va texnik holatiga e’tibor qaratish;

-texnikalarni harbiy hisobini yuritilishi vatexnik holati saqlash ishlari uchun ma’sul xodim tayinlab ularni mudofaa ishlari bo‘limi bilan uzluksiz aloqada bo‘lishini, talab etilgan ma’lumot, hisobotlari taqdim etilishi va mashg‘ulotlarga ishtirok etilishini ta’minlash;

-ehtiyot qismlar avtomobil zahira asbob-uskunalari va yoqilg‘I quyish vositalari uchun javobgar shaxslar ish faoliyati ustidan doimiy nazorat qilib boorish hamda texnikalarni doimiy jangovor shayligini ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harbiy-transport majburiyati to‘g‘risida”gi farmoyishiga muvofiq tuman mudofaa ishlari bo‘limining tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot va muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarning sozligi, sifatliligi va zaxiradagi ehtiyot qismlari to‘liqligini ta’minlash topshirilsin.

5. Harbiy ro‘yxatga olish tadbirlarini bajarish jarayonida korxona, tashkilot, muassasa jumladan ta’lim muassasalari ma’muriyatlari mudofaaishlari bo‘limi tomonidan harbiy hisobni tekshiruv jarayonida ushbu qarorning1-ilovasidagi jadval asosida ko‘rsatilgan muddatlarda harbiy hisobga oid barcha hujjatlar taqdim etish majburligi belgilansin.

6. Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarni uni nazorat qilish tuman mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan amalga oshirilsin.

7. Tumandagi korxona, tashkilot, muassasalarga hamda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1996-yil 22-iyul kunidagi “Harbiy-transport majburiyati to‘g‘risida”gi 259-45-sonli Farmoyishi talablarini sifatli va samarali bajarish to‘la to‘kis amalga oshirish yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Allaqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b **A.Yangiyev**

Olot tuman hokimining
2023 yil 9 yanvardagi
9-2-31-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarning hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va uni sifatini yaxshilash maqsadida 2023-yil davomida tekshirish

JADVALI

№	Korxona tashkilot va muassasalar nomi	Tekshiruv o‘tkazish vaqti	Tekshiruv o‘tkazuvchi shaxs	Izoh
1.	Olot tumani SEOM bo`limi	21-23.02.2023-yil	Lavozimiga ko`ra	
2.	Olot tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	20-21.03.2023-yil	Lavozimiga ko`ra	
3.	Olot TYFUK	25-26.04.2023-yil	Lavozimiga ko`ra	
4.	Olot tuman tibbiyot birlashmasi	22-24.05.2023-yil	Lavozimiga ko`ra	
5.	Olot tumani o`rmon xo`jaligi	19-21.06. 2023-yil	Lavozimiga ko`ra	
6.	ARU ABMK	17-18.07.2023-yil	Lavozimiga ko`ra	
7.	MUE ABMK	22-23.08.2023-yil	Lavozimiga ko`ra	
8.	NGQE MCHJ	19-23.09.2023-yil	Lavozimiga ko`ra	